

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

QOZOQBOYEVA DILFUZAXON ILXOMJON QIZI

**BOLALAR NUTQINING GENDER VA PSIXOLINGVISTIK
XUSUSIYATLARI TADQIQI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the of doctoral (DSc) dissertation Abstract

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Qozoqboyeva Dulfuzaxon Ilhomjon qizi

Bolalar nutqining gender va psixolingvistik xususiyatlari tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari misolida) 3

Kozokboeva Dulfuzaxon Ilhomjon kizi

Study of gender and psycholinguistic features of children’s speech (examples of english and uzbek languages)..... 33

Козокбоева Дилфузахон Илхомжон кизи

Исследование гендерных и психолингвистических особенностей речи у детей (на примере английского и узбекского языков) 63

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ 76

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

QOZOQBOYEVA DILFUZAXON ILXOMJON QIZI

**BOLALAR NUTQINING GENDER VA PSIXOLINGVISTIK
XUSUSIYATLARI TADQIQI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Fil1064 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.adhti.uz.) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Toshboyeva Barnoxon Odiljonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Saidxonov Ma’mirjon Muxammedovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jafarov Botirjon Sattarovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mamajonov Muhammadjon Yusbjonovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel:0(374) 223-42-76; faks: 0(374) 223-42-76; e-mail: info@asifl.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0(374)223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.Dj.Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.A.Abduvaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning asoslanishi va dolzarbligi. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda tilni undan foydalanuvchi inson omili bilan o‘zaro uyg‘unlikda, uning nutqiy faoliyati, ijtimoiy hamda ruhiy-hissiy holati bilan bog‘liqlikda o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Natijada antropotsentrik paradigma nomi ostida birlashuvchi qator tilshunoslik yo‘nalishlari vujudga keldi hamda o‘z tadqiq metodologiyasi va tahlil usullariga ega bo‘ldi. Muloqot qilish xulqiga doir tadqiqot ishlarning paydo bo‘lishi, psixolingvistikaga doir izohli lug‘atlar antropotsentrik tilshunoslik va lug‘atshunoslik sohalari rivojlanishida muhim amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosida turli ilmiy markazlar bolalar nutqining turli jihatlarini o‘rganmoqda. Masalan, Stanford loyihasi qiz va o‘g‘il bolalarning emotsional leksikasidagi farqlarni tadqiq etsa, Maks Plank instituti grammatik tuzilmalar o‘zlashtirilishidagi gender tafovutlarni tahlil qilmoqda. Tokio universiteti genderspetsifik nutq shakllarini o‘rganayotgan bo‘lsa, Yel universiteti laboratoriyasi imo-ishoralar va nutq o‘zaro bog‘liqligini o‘rganmoqda. Barselona universiteti bolalarning imo-ishorasidagi madaniy farqlarni tahlil qilgan bo‘lsa, Oksford ilmiy markazi verbal va noverbal vositalar qo‘llanganda ong faoliyatini o‘rganmoqda. Mazkur tadqiqotlar til bilan gender o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligini, ayol va erkaklar nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini va lisoniy birliklar orqali namoyon bo‘ladigan gender stereotiplarini chuqur tahlil qiladi. Antroposentrik paradigma doirasida shakllangan bu yo‘nalish til tizimini inson omili bilan uzviy aloqada o‘rganishga qaratilgan. Gender farqlar tilning jamiyatdagi ahamiyati, ijtimoiy munosabatlar, muloqot kontekstlari hamda nutqiy strategiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Har bir madaniyatda bolalar uchun shakllanadigan til me‘yorlari qaysi mavzular haqida gapirish, qanday ohang va intonatsiyadan foydalanish, qaysi nutq aktlarini ustun qo‘yish – ijtimoiylashuv jarayonida mustahkamlanadi. Bolalar nutqidagi gender xususiyatlarini o‘rganish orqali milliy madaniyatlarning lingvokognitiv xususiyatlari va tarbiyaviy qadriyatlari aniqlanadi.

Mamalakatimizda bolalar nutqidagi gender xususiyatlarni o‘rganish masalasi tilni ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liq holda talqin etish, milliy tarbiya tizimida shakllanayotgan kommunikativ me‘yorlarni aniqlash hamda zamonaviy lingvokognitiv yondashuvlarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan dolzarbdir. Genderga xos nutqiy farqlarni aniqlash bolalarning muloqot kompetensiyasini baholash, ta‘lim jarayonida samarali kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqish va jamiyatdagi ijtimoiy rollarning til orqali aks etish mexanizmlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo‘nalish respublika tilshunosligi, psixolingvistika va ta‘lim metodikasi uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, “Aholi orasida xorijiy tillarning omalashishini ta‘minlash, ularni mukammal o‘zlashtirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida xalqaro miqyosda tan olingan dastur va darsliklarni ta‘limning barcha bosqichlariga tatbiq etish”¹ kabi maqsadlar belgilab o‘tilgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy- tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, 2022-yil 20-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion o‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Jahon tilshunosligida kommunikatsiya nazariyasi, shaxs xususiyatlarining muloqot jarayoniga ta’siri, shuningdek, matnning psixolingvistik xususiyatlarini tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dunyoning ilg‘or ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida olib borilmoqda. Ularga Kornel universiteti, Indiana universiteti, Massachusetts Texnologiyalar instituti, Pensilvaniya universiteti (AQSh), Toronto universiteti (Kanada), Esseks universiteti, Reading universiteti, York universiteti (Buyuk Britaniya), Lund universiteti (Shvetsiya), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Vladimir davlat universiteti (Rossiya), Luhansk Taras Shevchenko Milliy universiteti (Ukraina), Dehli universiteti (Hindiston), Semarang davlat universiteti (Indoneziya), O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Farg‘ona davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti (O‘zbekiston) misol bo‘la oladi.

Dunyo tilshunosligida muloqotning psixolingvistik xususiyatlari tadqiqiga oid izlanishlardan quyidagi ilmiy natijalar qo‘lga kiritilgan:

birinchi marta psixolingvistikaga bag‘ishlangan anjuman o‘tkazilib, undan so‘ng tilshunoslik va ruhshunoslik qo‘mitasi tashkil etilgan (AQSH, Kornel universiteti); psixolingvistikaga oid yirik seminar o‘tkazilib, uning natijalari asosida “Psixolingvistika: nazariya va tadqiqot muammolari” nomli kitob chop etilgan (AQSH, Indiana universiteti); kar bolalarda ko‘p tillilik; ikki tillilik; ona tili va o‘zlashtirilgan tilda tushunish; ikki tilli bolalar va kattalarda nutq mexanizmlari; ikki tillilikda shaxsiy xususiyatlar aniqlangan (Buyuk Britaniya, Reading universiteti); xitoy mandarin tilini ikkinchi til sifatida o‘zlashtirishning psixolingvistik asoslari;

ingliz mavhum soʻzlar lugʻatida hissiy soʻzlarning oʻrni; erta yoshdagi nutq rivojlanishi; sud-tibbiy ekspertizasida ikkitillilik masalasi tahlil qilingan (York universiteti, Buyuk Britaniya), nutqning shakllari va funksiyalari; aniq va mavhum soʻzlarni neyromodellashtirish; jamiyat meʼyorlari va til mexanizmlari; bir tilli va ikkitillilarda lingvistik va nolingvistik kontekstda kognitiv nazorat; ikkitillilik masalalari aniqlangan (Pensilvaniya universiteti, AQSh)², semantik maʼlumotni oʻzgartirish jarayonlarini tavsiflash; lingvistik ongning shakllanishi va faoliyati jarayonlari tahlil qilingan; nutqiy faoliyat nazariyasi yaratilgan (Moskva davlat universiteti, Rossiya), eksperimental fonetik laboratoriya yaratilgan, nutq va idrok jarayonlari tadqiq qilingan, bolalar nutqi va nutq patologiyalariga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan (Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya), kommunikativ tilshunoslik masalalari yoritilgan (Vladimir davlat universiteti, Rossiya), kommunikatsiya nazariyasiga oid masalalar oʻrganilgan (Luhansk Taras Shevchenko Milliy universiteti, Ukraina), shaxs xususiyatlarining muloqot jarayoniga taʼsiri oʻrganilgan (Dehli universiteti, Hindiston), til va shaxs xarakterining bogʻliq xususiyatlari tadqiq etilgan (Semarang davlat universiteti, Indoneziya), gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi amalga oshirilgan; bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv va lingvopsixologik tadqiqi amalga oshirilgan (Samarqand davlat universiteti), oʻzbek bolalar nutqida ijtimoiy-psixologik omillar taʼsirida namoyon boʻladigan leksik-semantik xususiyatlar tahlil qilingan (Oʻzbekiston Milliy universiteti), nutqiy faoliyat jarayonidagi ruhiy holatlarning oʻzbek tilidagi turli sath birliklari vositasida aks etishi yoritilgan (Andijon davlat universiteti), oʻzbek tilidagi matnlarda shaxs ruhiy holatining ifodalanishi masalasi yoritilgan (OʻzFA Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti) til (nutq) vazifalari va muloqotning psixolingvistik aspekti, muloqot va munosabat kabi masalalar yoritilgan; bilingvizimning mohiyati, oʻzga tilni mukammal egallash natijasida bilingv, yaʼni ikki til sohibi boʻlishning lingvopsixologik aspektlari tadqiq etilgan; bolalarga xos matnlarning psixolingvistik xususiyatlari tadqiq etilgan (Fargʻona davlat universiteti).

Jahon zamonaviy tilshunosligida gender va bolalar nutqi psixolingvistikasi boʻyicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: behavioral neyrolingvistika, klinik psixolingvistikasi, kognitiv neyrolingvistika, rivojlanish psixolingvistikasi masalalari, nutq mexanizmlari, tilning inson ongida aks etishi, birinchi va ikkinchi tilni oʻzlashtirish masalalari, nutq yaratish va tushunish, eksperimental psixolingvistikasi, erta yoshlarga doir til rivojlanishi, nutq yaratish va tushunish; nutq yoʻqolishi va interferensiya masalalarini tadqiq etish.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Bolalar nutqining psixolingvistik jihatlarini boʻyicha oʻzbek va xorijiy tilshunoslar orasida J. Piaget, L. S. Vigotskiy, D. Slobin, K. Nelsin, M. Tomasello³ kabi olimlar alohida oʻrin tutadi. Ular bolalar

² Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://research.reading.ac.uk/psylinglab/research-projects/phd-theses>. 31.05.2025; https://etda.libraries.psu.edu/?search_field=all_fields&q=psycholinguistics. 31.05.2025; <https://link.springer.com/journal/10936>. 31.05.2025; <https://www.sciencedirect.com/topics/computer-science/psycholinguistic-research>. 31.05.2025; <https://www.proquest.com/resultso/8AE550A71A2F45C8PQ/1>. 31.05.2025 va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

³ Piaget J. The language and thought of the child (3rd ed.). - London: Routledge & Kegan Paul. 1959. - 246 p; Vygotsky L. S. Thought and language (A. Kozulin, Ed. & Trans.). - Cambridge, MA: MIT Press. 1986. - 287 p;

nutqining qurilishiga asoslanuvchi til o'zlashtirish jarayoni, kognitiv rivojlanish bosqichlari va kontekstga ta'sirini ilmiy asoslab berdilar. Sotsiolingvistik nuqtai nazardan, bolalar nutqi E. Oxs, S. Ervin-Trip va B. Bernshteyn ishlarida ijtimoiy sinf, madaniyat va muloqot me'yorlari bilan bog'liq holda o'rganilgan.⁴ Pragmatika doirasida esa bolalar nutqidagi nutq aktlari, muloqot strategiyalari va so'zlashuv ko'nikmalar O. Blum, P. Beytis, D. Kristal kabi olimlar tomonidan tahlil qilingan.⁵

Xorijiy tilshunoslikda J. Kovtis, P. Ekkert, S. McConnell-Ginet, R. Lakof, D. Kemirin⁶ kabi olimlar gender tilshunosligi sohasida chuqur tadqiqotlar olib borgan. Ular gender va til munosabatlari, ayol va erkak nutqining o'ziga xos xususiyatlari, gender stereotiplar va ularning tildagi ifodalanishi kabi masalalarni chuqur o'rganishgan. R. Lakof ayol nutqining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bergan, D. Kemirin ingliz tilidagi gender stereotiplarni lingvistik tahlil qilgan, J. Kovtis va P. Ekkert esa nutqiy uslub va ijtimoiy rollar kesimida gender farqlarini yoritgan. Shunga qaramay, bu izlanishlarning asosiy qismi kattalar nutqiga qaratilgan bo'lib, bolalar nutqining psixolingvistik rivojida gender farqlari masalasi yetarlicha o'rganilmagan.

Rus tilshunosligida A.V. Krilina gender lingvistikasiga oid nazariy qarashlarni ishlab chiqdi. O.L. Kamenskaya va E.I. Goroshko o'z ilmiy tadqiqotlarida nutqdagi gender belgilarning leksik va pragmatik xususiyatlarini atroflicha tadqiq qilgan. N.N. Rozanova gender stereotiplarni ijtimoiy muhit hamda milliy madaniyat bilan o'zaro bog'lagan holda tahlil qilgan. Lekin bu tadqiqotlar asosan kattalar nutqi asosida olib borilgan.⁷

O'zbek bolalari nutqidagi gender xoslanishlar bo'yicha esa G. Ergasheva, A. Bahodirov, R. Qo'ldoshev, M. Oripova, M. Rahmatullayeva, N. Turayeva,

Nelson K. Language in cognitive development: Emergence of the mediated mind. - Cambridge: Cambridge University Press. 1996. - 332 p; Slobin D. The crosslinguistic study of language acquisition // (Vol. 1-2). Hillsdale NJ: Lawrence Erlbaum. 1985; Tomasello M. Constructing a language: A usage-based theory of language acquisition. - Cambridge, MA: Harvard University Press. 2003. - 388 p.

⁴ Ervin-Tripp S. Play in language development. In B. Scollon & P. Scollon (Eds.), Intercultural communication. - Oxford: Blackwell. 1991. - P. 61-82; Bernstein B. Class, codes and control. Volume 1: Theoretical studies towards a sociology of language. - London: Routledge & Kegan Paul. 1971. - 256 p; Ochs E. Culture and language development: Language acquisition and language socialization in a Samoan village. - Cambridge: Cambridge University Press. 1988. - 288 p.

⁵ Bates E. Language and context: The acquisition of pragmatics. - New York: Academic Press. 1976. - 270 p; Bloom O. Developing theories of intention. - Cambridge: Cambridge University Press. 1993. - 198 p; Crystal D. The Cambridge encyclopedia of language. - Cambridge: Cambridge University Press. 1987. - 472 p.

⁶ Cameron D. The Myth of Mars and Venus: Do Men and Women Really Speak Different Languages? - Oxford: Oxford University Press. 2007. - 196 p; Coates J. Gender and Discourse Analysis. In Gee, J.P. & Handford, M. (eds.) The Routledge Handbook of Discourse Analysis. - London: Routledge, 2013. - P. 90-103; Eckert P. The Problem with Binaries: Coding for Gender and Sexuality. // Language and Linguistics Compass, 8(11), 2014. - P.529-535; McConnell-Ginet S. Gender, Sexuality, and Meaning: Linguistic Practice and Politics. - Oxford: Oxford University Press. 2011. - 312 p; Lakoff R. Language and Woman's Place: Text and Commentaries. Revised and expanded edition, edited by Mary Bucholtz. - Oxford: Oxford University Press. 2004. - 320 p.

⁷ Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. - М.: Институт социологии РАН. 2004. - 189 с; Каменская О.Л. Гендергетика - наука будущего. В сб.: Гендер как интрига познания. - М.: Рудомино, 2002. - С. 13-19; Халеева И.И. Гендер как интрига познания. В кн.: Гендерный фактор в языке и коммуникации. - Иваново: Ивановский государственный университет, 2002. - С. 5-9; Горошко Е.И. Языковое сознание: гендерная парадигма. - Харьков: ИД «ИНЖЭК». 2003. - 180 с; Земская Е.А., Китайгородская М.А., Розанова Н.Н. Особенности мужской и женской речи. В кн.: Русский язык в его функционировании. - М.: Наука, 1993. - С. 90-136; Китайгородская М.А. Чужая речь в коммуникативном аспекте. В кн.: Русский язык в его функционировании: Коммуникативно-прагматический аспект. - М.: Наука, 2003. - С.65-89; Розанова Н.Н. Коммуникативно-жанровые особенности «мужской» и «женской» речи. В кн.: Общественно-политический дискурс. - М.: РГГУ, 2000. - С.167-211.

M. Xakimov, D. Xudoyberganova kabi olimlar ish olib borganlar.⁸ Gender masalalari dastlab R.Qo'ng'urov⁹ va M. Qurbonova¹⁰ tadqiqotlarida ko'tarilgan bo'lib, ular o'zbek tilidagi erkak va ayol nutqining o'ziga xos xususiyatlarini kuzatishgan. Keyinchalik bu yo'nalish rivoj topa boshlagan bo'lsa-da, tizimli va kompleks tadqiqotlar yetarli darajada emas.

Psixolingvistika masalalari o'zbek tilshunosligida S.Mo'minov, M.Zokirov, Z.Akbarova, I.Azimova, A.Nurmonov, I.Hojaliyev, D.Xudoyberganova, M.Qurbonova, S.Qurbonova, Sh.Alpanova, D.Yuldasheva, N.Yarashova, M.Mamajonovlarning¹¹ tadqiqotlarida yoritilgan.

Shu nuqtai nazardan, mavjud tadqiqotlar o'zbek bolalar nutqida gender xoslanishlarning tipologik, pragmatik va psixolingvistik xususiyatlarini qamrab olmagan, shuningdek, o'zbek va ingliz tillarini qiyosiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlanmagan.

Mazkur dissertatsiya ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishni maqsad qilib, o'zbek va ingliz bolalar nutqidagi genderga oid psixolingvistik, sotsiologik va pragmatik xususiyatlarni qiyosiy tahlil qiladi. Shu orqali u til tizimidagi umumiy va xususiy qonuniyatlarni aniqlash, madaniyatlararo qiyosiy yondashuv asosida yangi nazariy xulosalar chiqarish hamda pedagogik va lingvodidaktik amaliyot uchun zarur ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Til va madaniyat integratsiyasi asosida

⁸ Эргашева Г.И. Турли тизимдаги тилларда гендерга оид терминологиянинг шаклланишида лингвистик ва экстралингвистик омилар: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2018. – 222 б.; Bahodirov A. Maktab yoshidagi bolalar nutqining gender xususiyatlari. - Toshkent: O'qituvchi, 2018. - 96 b.; Qo'ldoshev R. Boshlang'ich sinf O'quvchilari nutqida gender farqlarning namoyon bo'lishi. // Ta'lim va tarbiya, №3, 2019. – B. 28-34; Oripova M. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining gender jihatdan farqlanishi. // Pedagogik mahorat, №5, 2019. – B.120-126; Rahmatullayeva M. O'zbek va ingliz tillari misolida bolalar nutqidagi gender farqlarning qiyosiy tahlili. – Samarqand: SamDU nashriyoti. 2020. - 132 b; Turayeva N. O'zbek oilalarida bola nutqining shakllanishiga gender yondashuvlarning ta'siri. // Til va madaniyat, №2, 2020. – B.56-63; Xakimov M. O'zbek tilidagi gender xoslanishlarning lingvistik tahlili. – Toshkent: Fan nashriyoti. 2013. - 156 b; Xakimov M. O'zbek xalq maqollarida gender stereotiplarning ifodalanishi. // Til va adabiyot ta'limi, №5, 2015. – B.34-39; Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi (monografiya). – Toshkent: Fan. 2012. - 204 b; Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi gender lakunalar tahlili. // O'zbek tili va adabiyoti, №3, 2018. – B.67-76; Xolmanova Z. O'zbek ayol va erkak nutqining qiyosiy tahlili. – Toshkent: Akademnashr. 2014. - 124 b; Mahmudova G. O'zbek tilidagi gender asimmetriya: lingvistik va pragmatik jihatlar. - Samarqand: SamDU. 2017. - 148 b. Mahmudov N. Tilshunoslikda antropotsentrik paradigma va O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti. // Filologiya masalalari, №1, 2019. – B.3-12.

⁹ Qo'ng'urov R. O'zbek tilida gender xususiyatlarning ifodalanishi. – Toshkent: Fan. 2002. - 128 b.

¹⁰ Qurbonova M. O'zbek tilshunosligida gender muammolari. – Samarqand: SamDU nashriyoti. 2003. - 112 b.

¹¹ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2000. – 254 б; Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 56 б; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолінгвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 52 б; Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1 жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 157 б; Хожалиев И. Психолінгвистиканинг фан сифатида шаклланишига доир // ФарДУ. Илмий хабарлар. 2017. №5. – Б. 71-74; Худойбергано́ва Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 214 б; Курбоно́ва М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг соціопсихолінгвистик тадқиқи. Монография. – Тошкент, 2014. – 145 б; Курбоно́ва С. Бадиий матнда шахс хусусиятларини ифодалаш: Филол. фан. б. фалс. Док.дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 48 б; Алпанова Ш. Нутқий фаолият жараёнидаги рухий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ бирликлари воситасида акс этиши: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Фарғона, 2018. – 135 б; Юлдашева Д. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентриқ тадқиқи: Филол.фан. д-ри (DSc) дисс. – Фарғона, 2022. 214 б; Yarashova N. Bolalar adabiyoti tilining lingvokognitiv, lingvopsixologik tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. – Samarqand, 2023. – 223 b; M.Y.Mamajonov. Muloqotning psixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2025. – 86 b.

xorijiy tillar ta'limining barqaror rivojlanish modeli: lingvistik, filologik, lingvodidaktik va raqamli yondashuvlar" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi ingliz va o'zbek bolalar nutqidagi genderga oid psixolingvistik xususiyatlarni qiyosiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ingliz va o'zbek bolalar nutqidagi psixolingvistik va genderga oid birliklarni til tizimining barcha darajalari kesimida aniqlash va ilmiy tavsiflash;

ingliz va o'zbek tillaridagi gender markerlari va gender stereotiplarini lingvistik mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilish;

1–11 yosh oralig'ida qiz va o'g'il bolalar nutqining bosqichma-bosqich rivojlanish xususiyatlarini psixolingvistik ko'rsatkichlar asosida belgilash;

ingliz va o'zbek bolalar nutqida gender xoslanishlarning tipologik umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda ularning lingvistik sabablarini asoslash;

bolalar nutqini gender va psixolingvistik tahlil qilish uchun qiyosiy indikatorlar, annotatsiya–teglash modeli va leksik–semantik tasnifni ishlab chiqish;

gender markerlarining tarjimadagi pragmatik ekvivalentlarini belgilash va ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini (ta'lim, diagnostika, tarjimashunoslik) ilmiy asoslash.

Tadqiqot obyekti sifatida 3-11 yosh ingliz va o'zbek bolalar nutqida genderga oid psixolingvistik xususiyatlarni ifodalovchi video materiallar, kinolar, podkastlar va audio-visual vositalar tanlab olingan.

Tadqiqot predmetini o'zbek va ingliz bolalar nutqidagi fonetik-intonatsion tovushlar, gender markerli lingvistik birliklar va ularning qo'llanish xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: dissertatsiyada tavsifiy, qiyosiy, chog'ishtirma metod, kontekstual tahlil, komponent tahlil, kuzatish, so'rovnoma va intervyu, statistik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

ingliz va o'zbek bolalar nutqidagi psixolingvistik hamda genderga oid xususiyatlar ilk bor tizimli va kompleks tarzda fonetik-fonologik, prosodik-intonatsion, leksik-semantik, morfologik-sintaktik, pragmatik hamda sotsiolingvistik-diskursiv darajalar, yosh kesimi, shuningdek oila, ta'lim va onlayn/raqamli muhit kabi kommunikativ vaziyatlar hamda fonetik-prosodik, leksik, morfosintaktik, pragmatik va sotsiolingvistik indikatorlar kesimida qiyosiy yondashuv asosida dalillangan;

ingliz va o'zbek tilidagi gender birliklar (-jon, -xon, hurmat vositalari, qarindoshlik atamalari) va gender stereotiplari (qizlarda rang-kiyim, bezak, o'g'il bolalarda texnika-transport) tizimli ravishda fonetik-intonatsion farqlar (qizlarda aniq artikulyatsiya va xilma-xil intonatsiya, o'g'il bolalarda yuqori intensivlik va buyruq ohangi) ilmiy asoslangan hamda tematik tasnifi ishlab chiqilgan;

ingliz va o'zbek bolalari nutqidagi genderga oid va psixolingvistik xususiyatlar kompleks o'rganish asosida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar nutqidagi 1–3 yosh: qizlarda erkalash, kichraytirish va emotsional leksika erta va faol; o'g'il bolalarda onomatopeya va harakat fe'llari ustun; 3–7 yosh: qizlarda

iltimos/hamkorlik aktlari va so'roq gap qurilmalari; o'g'il bolalarda buyruq-hazil-raqobat aktlari; 7–11 yosh: qizlarda tavsiflovchi sifatlar, rang-kiyim, bog'lovchilar; o'g'il bolalarda texnika-transport-sport leksikasi va raqobat ramzlari; prosodiya (qizlarda xilma-xil, yumshoq; o'g'il bolalarda jarangdor, qisqa) va gender farqlar asoslangan;

ingliz va o'zbek tillari misolida bolalar nutqidagi gender xoslanishlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilib, ikki tildagi gender xoslanishlarning tipologik jihatlari, o'xshash tomonlari: otlar fe'llardan erta; onomatopeyalar erta; emotsional leksika erta; abstrakt tushunchalar kechroq; va farqli tomonlari: o'zbek tili (agglutinativ): hurmat/murojaatning morfologik boyligi, erkalash–kichiraytirish qo'shimchalari, keng qarindoshlik tizimi; ingliz tili (analitik): modal/analitik qurimalarni erta o'zlashtirish (I'm, don't, can, wanna, gonna), hurmat va iltimosni ifodalovchi birliklarda yuqori chastotani qo'llash qonuniyatlari aniqlangan;

tadqiqot natijalariga asoslanib, o'zbek tilshunosligida ilk bor bolalar nutqining psixolingvistik va gender aspektida tadqiq etishning ilmiy-amaliy asoslari: a) qiyosiy indikatorlar chek-listi; b) annotatsiya–teglash sxemasi; c) leksik–semantik tasnif va qiyosiy lug'at yadrosi; d) diagnostik mezonlar; f) tarjimashunoslik prinsiplari: gender markerlarining pragmatik ekvivalentlari (-jon/-xon – dear/sweetie; muloyimlik strategiyalarini saqlash); g) amaliy metodologik tavsiyalar ishlab chiqilgan va statistik jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek bolalari nutqining gender va psixolingvistik xususiyatlari bo'yicha to'plangan materiallar, qo'yilgan muammolarni tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar o'zbek tilshunosligi uchun yangi ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi asoslangan;

ingliz va o'zbek bolalar nutq madaniyati, psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmlingvistika va kognitiv tilshunoslik sohalarini bo'yicha tadqiqotlar olib borishda, mavjud o'quv adabiyotlarini mukammallashtirishda, o'quv qo'llanma, majmualar yaratishda hamda lug'atlar tuzishda xizmat qilishi ko'rsatilgan;

tilni undan foydalanuvchi shaxsning nutqidagi fonetik-intonatsion va leksik-semantik xususiyatlar, nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi hamda vaziyat kabilar bilan bog'liq holda o'rganish zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Dissertatsiyada tilshunoslikda o'rganilishi kerak bo'lgan muammoning aniq qo'yilgani, foydalanilgan namunalar va izohlar faktik hamda analitik lisoniy manbalarga asoslangani, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilgani, ilmiy xulosalar dalillanganligi, nazariy ma'lumotlar va xulosalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, keltirilgan tahlillarning amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati ingliz va o'zbek tilshunosligida genderologik va psixolingvistik yondashuvni rivojlantirish, gender markerli til birliklarini o'rganish metodologiyasini takomillashtirish, bolalar nutqidagi gender va psixolingvistik xoslanishlarni tadqiq etish uchun nazariy va amaliy asoslarni yaratish bilan belgilanadi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan nazariy qoidalar va xulosalar ingliz

va o‘zbek tilshunosligida bolalar nutqidagi gender kategoriyasini o‘rganish borasidagi yangi yo‘nalishlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan ingliz va o‘zbek tilshunosligida psixolingvistik gender masalalarini o‘rganishga qaratilgan keyingi ilmiy ishlarda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘quv jarayonida “Sotsiolingvistika”, “Psixolingvistika”, “Ontogenez lingvistika”, “Pragmatik lingvistika”, “Pedagogik lingvistika”, “Lingvokulturologiya”, “Tilshunoslikka kirish” va “Kognitiv lingvistika” kabi fanlarni o‘qitishga o‘zaro integratsiya qilish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga tadqiqot mavzusi asosida darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish, muassasalarda chet tili o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirish va bolalar adabiyotini tahlil qilish bilan bog‘liq jarayonlarni ilmiy asoslashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bolalar nutqining psixolingvistik va gender xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek va ingliz bolalarining genderga oid nutqi psixolingvistik nuqtayi nazardan ilk bor tizimli tahlillar haqidagi xulosalarga asoslanib, o‘zbek tilidagi genderga oid lingvistik birliklar hamda stereotiplarni aks ettiruvchi til birliklari sistemali ravishda tadqiq etilib, ularning bolalar nutqidagi namoyon bo‘lish xususiyatlarining tematik tasnifi ishlab chiqish va tahlil qilish, bunday birliklarni avtomatik tarjima tizimlarida adekvat uzatish strategiyalarini ishlab chiqishga doir xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104209 “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” nomli loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 27-avgustdagi №01/4-3788 son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbek va ingliz tillari misolida bolalar nutqidagi gender xoslanishlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilib, ikki tildagi gender xoslanishlarning tipologik jihatlari, o‘xshash va farqli tomonlariga asoslangan holda lekisik-semantik ma‘lumotlar bazasi kengaytirildi. Bu esa o‘zbek tilining morfologik analizatori va tarjima algoritmlarining aniqligini oshirishga olib keldi;

ingliz va o‘zbek tillari misolida olib borilgan bolalar nutqidagi gender xoslanishlarning qiyosiy tahlili asosida ism tanlovidagi gender strategiyalarini o‘rganish, bu materiallar asosida mobil ilovada foydalanuvchi tanloviga mos gender balansli ism tavsiyalari, konnotativ tasniflar, ehtimoliy muloqot kontekstlariga mos takliflarni ishlab chiqish imkoniyatiga doir xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022-2023-yillarda bajarilgan IL-21091506 “O‘zbek ismlarining izohli imlo lug‘ati va mobil ilovasini yaratish” nomli loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 27-avgustdagi №01/4-3789 son ma‘lumotnomasi). Natijada, semantik ma‘lumotlar bazasi kengaytirildi, u orqali o‘zbek ismlarining morfo-semantik tuzilishi, tarixiy qatlamlari, fonetik variantlari, va nutqdagi kontekstual

yuklamasi aniqlandi. Bu esa lug‘at tahriri, mobil ilovaning algoritmik strukturasi va foydalanuvchi interfeysida interaktiv tavsiyalar yaratish imkonini berdi;

ingliz va o‘zbek bolalari nutqidagi genderga oid psixolingvistik xususiyatlarni kompleks o‘rganilganligi, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar nutqidagi 1–3 yosh hamda qizlarda erkalash, kichraytirish va emotsional leksika erta va faolligi, o‘g‘il bolalarda onomatopeya va harakat fe’llari ustunligi, 3–7 yosh: qizlarda iltimos/hamkorlik aktlari va so‘roq konstruksiyalari va o‘g‘il bolalarda buyruq–hazil–raqobat aktlari, 7–11 yosh: qizlarda tavsiflovchi sifatliari, rang–kiyim, narrativ bog‘lovchilar; o‘g‘il bolalarda texnika–transport–sport leksikasi va raqobat ramzlari; prosodiya (qizlarda xilma-xil, yumshoq konturlar; o‘g‘il bolalarda jarangdor, qisqa konturlar) gender farqlarni ko‘rsatib berilishi xususidagi xulosalardan 2025-yil iyul va avgust oylarida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi O‘zbekiston teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” nomli eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 3-sentyabrdagi 05-09-1391-son ma’lumotnomasi). Natijada, eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortgan hamda ingliz va o‘zbek bolalari nutqining gender va psixolingvistik xususiyatlari bo‘yicha to‘plangan materiallar, qo‘yilgan muammolarni tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar o‘zbek tilshunosligi uchun yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi manba sifatida xizmat qilishi ta’minlagan;

ingliz va o‘zbek bolalar nutqidagi psixolingvistik va genderga oid holatlar ilk bor tizimli (darajalar: fonetik-fonologik; prosodik-intonatsion; leksik-semantik; morfologik-sintaktik; pragmatik; sotsiolingvistik-diskursiv; yosh kesimi; vaziyatlar: oila; ta’lim muhiti; onlayn/raqamli muhit); indikatorlar: fonetik–prosodik; leksik; morfosintaksis; pragmatik; sotsiolingvistik) ravishda berilgan qiyosiy tahlili asosidagi xulosalardan innovatsion loyihasi asosida ta’lim tizimi jarayonini mustahkamlash maqsadida yoritilgan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishda yangi yondashuvlar sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 10-sentabrdagi 01-06/996-son ma’lumotnomasi). Natijada, uslubiy qo‘llanmalarining ilmiy saviyasi ortgan hamda ingliz va o‘zbek bolalari nutqining gender va psixolingvistik xususiyatlari bo‘yicha to‘plangan materiallar, qo‘yilgan muammolarni tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar o‘zbek tilshunosligi uchun yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi manba sifatida xizmat qilishi ta’minlagan;

ingliz va o‘zbek tillari misolida bolalar nutqidagi gender xoslanishlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilib, ikki tildagi gender xoslanishlarning tipologik jihatlari, o‘xshash tomonlari: otlar fe’llardan erta; onomatopeyalar erta; emotsional leksika erta; abstrakt tushunchalar kechroq; va farqli tomonlari: o‘zbek tili (agglutinativ): hurmat/murojaatning morfologik boyligi, erkalash-kattalashtirish qo‘shimchalari, keng qarindoshlik tizimi; ingliz tili (analitik): modal/analitik konstruksiyalarni erta o‘zlashtirish, hurmat va iltimosni ifodalovchi birliklarning yuqori chastotasi aniqlangan xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oil va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi “Oil va gender” ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yilga mo‘ljallangan ish rejasining III bo‘lim “Gender tenglikni ta’minlashga oid turli streotiplarning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot materiallarini tayyorlash”

to'g'risidagi 25-band ijrosini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oil va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oil va gender" ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 14-oktabrdagi 01-09/2851-son ma'lumotnomasi). Natijada, ikkala til tipologiyasining bolalar nutqi rivojlanishiga ta'sirini aniq ko'rsatib berilgan hamda til tipologiyasi va kognitiv rivojlanish o'rtasidagi bog'liqligi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya va anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot ishi mavzusiga oid jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta Scopus (Q1) maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola (shulardan 2 tasi xorijiy jurnalda) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, ishning hajmi 227 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti, ishning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **"Tilshunoslikda bolalar nutqida gender va psixolingvistik xususiyatlarning nazariy o'rganilishi"** deb nomlangan birinchi bobida bolalar nutqidagi gender va psixolingvistik xususiyatlarning nazariy asoslari chuqur o'rganiladi. Tadqiqotning poydevori sifatida jahon va o'zbek tilshunosligida bolalar nutqini o'rganish tarixiy taraqqiyoti, uning asosiy bosqichlari va metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Bolalar nutqini tadqiq etishda psixolingvistik, sotsiolingvistik, kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlarning o'zni alohida ajratib ko'rsatiladi. Xususan, V. Shtern, L. Vigotskiy, J. Piaje, N. Xomskiy kabi jahon olimlarining tilni o'zlashtirish nazariyalari hamda o'zbek tilshunosligida A. G'ulomov, M. Asqarova, D. Muhamedova kabi olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy o'rganiladi.

Dissertatsiya tadqiqotida L.V. Yassmanning "Bolalarda til komponentligi shakllanishini tadqiq etishning psixolingvistik metodi"dan foydalanildi.

Psixolingvistika til va tafakkur, nutqiy faoliyat va inson psixikasi o'rtasidagi murakkab aloqalarni o'rganuvchi fan sifatida bolalar nutqini tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Psixolingvistik yondashuv til o'zlashtirish jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qilish, bolaning lingvistik kompetensiyasi qanday paydo bo'lishi va rivojlanishini ilmiy asosda tushuntirish imkonini beradi. Bu yondashuv

bolani tayyor til birliklarini o'zlashtiruvchi emas, balki o'z nutq tizimini faol ravishda yaratuvchi subyekt sifatida talqin qiladi.

Psixolingvistika doirasida bolalar nutqini o'rganish quyidagi asosiy masalalarni qamrab oladi: 1. til o'zlashtirish mexanizmlari; 2. nutqiy idrok jarayoni; 3. nutqni hosil qilish bosqichlari; 4. nutqiy faoliyatda ishtirok etuvchi psixik jarayonlar (xotira, diqqat, tafakkur).

Struktur tilshunoslik til tizimini sinxron holatda tahlil qilsa, psixolingvistika tilning inson ongida qanday shakllanishi, saqlanishi va real muloqotda qo'llanishiga e'tibor qaratadi. Aynan bolalar nutqi ushbu jarayonlarni kuzatish uchun eng qulay empirik material hisoblanadi. Shu bois bolalar nutqi "psixolingvistika uchun ideal tadqiqot maydoni" sifatida e'tirof etiladi.

Bolalar nutqini psixolingvistik jihatdan o'rganishda bir nechta asosiy nazariy yondashuvlar shakllangan bo'lib, ular til o'zlashtirish jarayonida biologik va ijtimoiy omillarning rolini turlicha talqin qiladi. Tadqiqotimizda nativistik, bixevioristik, ijtimoiy-interaktiv va kognitiv nazariyalar metodologik asos sifatida qaraladi.

Nativistik (innatistik) nazariya til o'zlashtirishda tug'ma biologik mexanizmlar mavjudligini asoslaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bola tilni tayyor qoidalar asosida emas, balki ongida mavjud bo'lgan "universal grammatika" yordamida faol ravishda kashf etadi. Bolalar nutqidagi ijodkorlik va grammatik "xatolar" ushbu jarayonning dalili sifatida talqin qilinadi.¹²

Bixevioristik nazariya til o'zlashtirishni taqlid, takrorlash va rag'batlantirish mexanizmlari orqali tushuntiradi. Bu yondashuv nutqiy ko'nikmalar tashqi muhit ta'siri ostida shakllanishini ta'kidlaydi. Biroq tilning ijodkorlik xususiyati va grammatik murakkabligini to'liq izohlab bera olmasligi sababli ushbu nazariya tanqid qilingan.¹³

Ijtimoiy-interaktiv nazariya til rivojlanishini ijtimoiy muloqot bilan chambarchas bog'laydi. Til dastlab ijtimoiy faoliyatda shakllanib, keyinchalik shaxsning ichki nutqiga aylanadi.¹⁴ Bruner tomonidan ilgari surilgan "Til o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlash tizimi" (LASS) kattalarning bola nutqini rivojlantirishdagi faol rolini asoslaydi. Ushbu yondashuv til o'zlashtirishda motivatsiya va muloqot ehtiyojining muhimligini ko'rsatadi hamda gender farqlarni tahlil qilishda metodologik ahamiyatga ega.

Kognitiv nazariya til rivojlanishini bolaning umumiy aqliy rivojlanishi bilan bog'laydi.¹⁵ Til tafakkur mahsuli sifatida qaraladi va kognitiv tushunchalarning shakllanishi nutq rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, Vigotskiy Piaje ta'riflagan egosentrik nutqni ichki nutqning shakllanish bosqichi sifatida talqin qiladi.

¹² Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса / Н. Хомский. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972. – 259 с.

¹³ Скиннер, Б. Ф. Вербальное поведение // История зарубежной психологии. Тексты. – М., 1986. – С. 60-95

¹⁴ Выготский Л. С. Мышление и речь / Л. С. Выготский. – 5-е изд., испр. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с. // Bruner J. S. Child's Talk: Learning to Use Language. – New York: W. W. Norton & Company, 1983. – 208 p.

¹⁵ Piaget J. The language and thought of the child (3rd ed.). – London: Routledge & Kegan Paul. 1959. – 246 p.

Xulosa qilib aytganda, mazkur nazariyalar bolalar nutqini psixolingvistik jihatdan tushuntirishda bir-birini to'ldiradi. Zamonaviy psixolingvistika til o'zlashtirishni biologik, kognitiv va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasi sifatida talqin qiladi. Ushbu nazariy asoslar keyingi boblarda bolalar nutqidagi psixolingvistik va gender xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish uchun mustahkam metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Jahon tilshunosi Uilyam Labov takidlashicha bolalar nutqidagi fonetik va grammatik variantlar ularning ijtimoiy muhiti va ijtimoiy identiteti bilan bevosita bog'liq.¹⁶ Bola nutqiy tanlov orqali o'zini jamiyatda muayyan ijtimoiy va gender roliga mansub shaxs sifatida namoyon qiladi. Peter Trudgill esa "The Social Differentiation of English in Norwich" tadqiqotida qiz bolalar ko'proq ijtimoiy jihatdan "prestijli" talaffuz variantlarini, o'g'il bolalar esa normadan chekinuvchi, kuch va dominantlikni ifodalovchi shakllarni afzal ko'rishini ta'kidlaydi.

Mazkur tadqiqotlar bolalar nutqidagi gender xoslanishlar biologik emas, balki ijtimoiy shartlangan hodisa ekanligini ko'rsatadi. Bola nutq orqali o'z jinsiy va ijtimoiy identitetini shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Debora Kemirin, Janet Holmis, Robin Lakof, Debora Tennin kabi olimlar bolalar nutqida genderga oid kommunikativ strategiyalar va pragmatik farqlarni o'rgandilar. R. Lakoff *Language and Woman's Place*(1975) asarida qiz bolalar nutqida muloyimlik, baholovchi birliklar va noaniq ifodalar, o'g'il bolalarda esa buyruq va dominantlikka yo'naltirilgan nutq shakllari ustunligini qayd etadi.¹⁷

E. Hof tadqiqotlari bolalar nutqidagi gender tafovutlar atrof-muhit, xususan ota-onaning nutqiy modeli bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Bu holat bola nutqining psixolingvistik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.¹⁸

Eleanor Mekobi va Karl Jeklin "The Psychology of Sex Differences" asarida bolalar nutqidagi gender farqlarni ijtimoiy motivatsiya va muloqot strategiyalari bilan izohlaydi.¹⁹ J. Haydi esa "Gender Similarities Hypothesis" doirasida gender farqlar asosan ijtimoiy shartlangan va o'zgaruvchan ekanligini ta'kidlaydi.²⁰

Penelopa Ekkert bolalar nutqidagi gender tafovutlarni ijtimoiy identitet va lingvistik variantlik bilan bog'laydi. Lingvistik variantlar gender identitetini indekslash vositasi sifatida xizmat qiladi.²¹

Judit Batlarning "Gender Trouble" asarida gender performativlik nazariyasiga ko'ra, gender biologik jihatdan berilgan va o'zgarimas belgi emas, balki til birliklari, nutqiy faoliyat hamda ijtimoiy xulq-atvor andozalarining muntazam takrorlanishi orqali shakllanadigan ijtimoiy hodisadir fikrini ilgari surgan.²²

¹⁶ Labov W. *Sociolinguistic Patterns*. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press. 1972. – 254p.

¹⁷ Cameron D. *The Myth of Mars and Venus: Do Men and Women Really Speak Different Languages?* - Oxford: Oxford University Press. 2007. – 196 p.; Holmes J. *Gendered Talk at Work: Constructing Gender Identity Through Workplace Discourse*. – Oxford: Blackwell. 2006. – 325 p.; Lakoff R. *Language and Woman's Place: Text and Commentaries*. Revised and expanded edition, edited by Mary Bucholtz. - Oxford: Oxford University Press. 2004. – 320 p.

¹⁸ Hoff E. *The Specificity of Environmental Influence: Socioeconomic Status Affects Early Vocabulary Development Via Maternal Speech*. // *Child Development*, 74(5), 2003. – P.1368–1378.

¹⁹ Maccoby E.E., & Jacklin C.N. *The Psychology of Sex Differences*. – Stanford: Stanford University Press. 1974. – 214p.

²⁰ Hyde, J.S. *The Gender Similarities Hypothesis*. // *American Psychologist*, 60(6), 2005. – P. 581–592.

²¹ Eckert P. *Linguistic Variation as Social Practice: The Linguistic Construction of Identity in Belten High*. – Oxford: Blackwell. 2000. – 254p.

²² Butler J. *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity*. - New York: Routledge. 1990. – 241p.

Syuzan Gelman va Maykl Holiday tadqiqotlari esa bolalar nutqidagi gender tafovutlarni leksik-kognitiv va funksional-grammatik darajalarda izohlaydi.²³ A. Fernald esa chaqaloqlarga qaratilgan nutqda ham gender farqlar mavjudligini aniqlagan.

Fonetik va intonatsion darajada olib borilgan tadqiqotlar qiz bolalar murakkab fonemalarni o'g'il bolalarga nisbatan erta va aniqroq o'zlashtirishini ko'rsatadi.²⁴ Bu farqlar biologik rivojlanish bilan bir qatorda sotsiokommunikativ motivatsiya bilan ham mustahkamlanadi.

Leksik-semantik va sintaktik darajada ham gender tafovutlar aniqlangan: qiz bolalar emotsional, baholovchi va ijtimoiy leksikani, murakkab grammatik konstruksiyalarni erta egallaydi; o'g'il bolalar esa harakatga yo'naltirilgan so'zlar va sintaktik soddalikni afzal ko'radilar.

Xulosa qilib aytganda, ingliz bolalari nutqidagi gender xoslanishlar biologik omillar bilan bir qatorda sotsiolingvistik, madaniy va psixologik ijtimoiylashuv jarayonlari natijasida shakllanadi. Ushbu nazariy va empirik yondashuvlar ingliz va o'zbek bolalari nutqidagi psixolingvistik va gender tafovutlarni qiyosiy o'rganish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

Zamonaviy psixolingvistikada bolalar nutqini o'rganishda gender omili muhim tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Gender bolaning nutqiy xatti-harakati, kommunikativ strategiyasi va ijtimoiy identitetining shakllanishiga bevosita ta'sir etuvchi psixolingvistik omillardan biridir. Bolalar nutqidagi gender tafovutlar miyaning neyropsixologik faoliyati, ijtimoiy rollarning ichkilashtirilishi va madaniy qadriyatlarining til orqali uzatilishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan gender farqlari biologik (biogenetik) va sotsiomadaniy omillar bilan izohlanadi. O'zbek jamiyatida an'anaviy gender rollari saqlanib qolganligi sababli, qiz va o'g'il bolalar nutqida ijtimoiy-psixologik tafovutlar erta yoshdan shakllana boshlaydi.

O'zbek tilshunosligida bolalar nutqini o'rganish XX asrning 70-80-yillarida O. Shamatov, H. Ne'matov, U. Tursunov kabi olimlar tadqiqotlarida boshlangan bo'lsa-da, mazkur ishlar asosan fonetik, leksik va grammatik rivojlanishga qaratilgan bo'lib, gender omili yetarlicha yoritilmagan. Genderga oid psixolingvistik tahlillar esa XXI asrda R. Qo'ng'irov, M. Qurbonova, Z. Tojiboyeva, G. Murotova, M. X. Hakimova kabi olimlar ishlari orqali rivojlandi.²⁵

Mazkur tadqiqotlarda o'zbek bolalari nutqida gender farqlari semantik, pragmatik, emotsional va stilistik darajalarda namoyon bo'lishi qayd etiladi. Til bolada nafaqat aloqa vositasi, balki gender identifikatsiyasining verbal ifodasi

²³ Gelman S.A. *The Essential Child: Origins of Essentialism in Everyday Thought*. – Oxford University Press. 2003. – 1547 p.; Halliday M.A.K. *Learning How to Mean: Explorations in the Development of Language*. - London: Edward Arnold. 1975. – 325p.

²⁴ Trudgill P. *On Dialect: Social and Geographical Perspectives*. - Oxford: Blackwell. 1983. – P.58; Cheshire J. *Variation in an English Dialect: A Sociolinguistic Study*. - Cambridge: Cambridge University Press. 1982. – 191p.

²⁵ Shamatov O. *Ona tili ta'limida nutqni rivojlantirish yo'llari*. - Toshkent: O'qituvchi. 1980. – 154b.; Ne'matov H. *Bolalar nutqining leksik xususiyatlari*. - Toshkent: Fan. 1979. – 587 b.; Tursunov U. *Nutqiy faoliyat va bola tili*. - Toshkent: O'qituvchi. 1985. – 157 b.; Qo'ng'irov R. *Nutq madaniyati va gender lingvistika*. - Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2019. – 1347 b.; Qurbonova M. *O'zbek bolalari nutqining psixolingvistik xususiyatlari*. – Toshkent, 2018. – 158b. // Tojiboyeva Z. S. *O'zbek bolalar nutqida gender differensiasiyasi masalalari*. // "Filologiya masalalari" ilmiy jurnal, - №2, 2020. B.145–151.

sifatida shakllanadi. Z. M. Qodirova ta'kidlaganidek, til jamiyatdagi gender stereotiplarni aks ettiruvchi va mustahkamlovchi mexanizm vazifasini bajaradi.²⁶

O'zbek oilalarida qiz va o'g'il bolalarga nisbatan muloqot uslubi turlicha bo'lib, bu holat ularning nutqiy kompetensiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qiz bolalar nutqida muloyimlik, baholovchi va affektiv birliklar, o'g'il bolalar nutqida esa aniqlik, qisqalik va dominantlikka yo'naltirilgan strukturalar ustunlik qiladi. Bu jarayon psixolingvistik jihatdan gender stereotiplarning bola ongida mustahkamlanishiga olib keladi.

Fonetik darajada olib borilgan tadqiqotlar qiz bolalar murakkab fonemalarni ([r], [sh], [ch] va boshqalar) o'g'il bolalarga nisbatan erta va aniqroq o'zlashtirishini ko'rsatadi. Bu farqlar nerv tizimi va nozik motorikaning rivojlanish sur'ati bilan bir qatorda, qiz bolalarning muloqotga faolroq jalb etilishi bilan ham izohlanadi.²⁷

Leksik-semantik darajada ham gender tafovutlar yaqqol namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar qiz bolalar lug'at boyligi, baholovchi va emotsional birliklardan foydalanish ko'rsatkichlari yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi. O'g'il bolalar nutqida esa harakat va predmetga yo'naltirilgan leksika ustuvorlik qiladi.²⁸

Morfologik jihatdan qiz bolalar nutqida erkalash va kichraytirish qo'shimchalari (-jon, -oy, -choq va boshqalar) ko'proq uchrashi aniqlangan.²⁹ Bu holat o'zbek madaniyatidagi mehr, nazokat va muloyimlik konseptlari bilan bog'liq bo'lib, qiz bolalarda affektiv-emotsional nutq strategiyalarining rivojlanganligini ko'rsatadi.

Sintaktik va kommunikativ darajada qiz bolalar dialog va polilog nutqda so'roq va undov gaplarni, o'g'il bolalar esa darak gaplarni ko'proq qo'llaydi.³⁰ Bu farq qiz bolalarning muloqotni davom ettirish va emotsional aloqani kuchaytirishga, o'g'il bolalarning esa axborot uzatishga yo'naltirilgan strategiyalarini aks ettiradi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlar oila ijtimoiy modeli, tarbiya uslubi va yashash muhiti bolalar nutqidagi gender tafovutlarga kuchli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shaharlik va yuqori ma'lumotli oilalarda gender farqlar nisbatan yumshagan bo'lsa, an'anaviy muhitda bu tafovutlar aniqroq namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda jamiyatda gender tenglik g'oyalarining kuchayishi, ta'lim tizimidagi islohotlar va ommaviy axborot vositalari ta'siri natijasida bolalar nutqidagi an'anaviy gender xoslanishlar transformatsiyaga uchramoqda. Zamonaviy shahar muhitida qiz va o'g'il bolalar nutqida kuzatiladigan tafovutlar kamayib bormoqda.

Demak o'zbek bolalari nutqidagi gender xoslanishlar biologik, psixolingvistik va lingvokulturologik omillarning murakkab o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi va

²⁶ Qodirova Z. M. Gender va til: kommunikativ psixologiya asoslari. – Toshkent: Ilm ziyo. 2021. – B. 103.

²⁷ Qilichev Z. Bola nutqining fonetik shakllanish xususiyatlari. // Til va adabiyot ta'limi. – №2. 2003. – B. 48–54.; Ergasheva O.A. O'zbek bolalarining fonetik rivojida gender tafovutlari. – Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti. 2020. – B. 87–92.

²⁸ Zokirov F. O'zbek bolalarida lug'at boyligining shakllanish bosqichlari. – Toshkent: Ilm ziyo. 2021. – 871 b.; Normirzayeva A.X. Bolalar nutqida genderga oid differensial rivojlanish. // O'zMU ilmiy axborotnomasi. – №3. 2020. – B. 111–116.

²⁹ Bobojonov A.K. Bola nutqining grammatik kategoriyalarni o'zlashtirishidagi gender farqlari. // Til va adabiyot ta'limi. – №1. 2016. – B. 42–48

³⁰ Xolmirzayeva M.K. O'zbek bolalarining muloqot uslubi va kommunikativ strategiyalari. // Filologiya masalalari. – №2. 2020. – B. 71–75.

fonetik, leksik-semantik, morfologik hamda sintaktik darajalarda namoyon bo‘ladi. Ushbu xususiyatlarni ingliz bolalari nutqi bilan qiyosiy tahlil qilish gender stereotiplarining universal va milliy xususiyatlarini aniqlash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**Bolalar nutqining gender jihatdan fonetik-intonatsion xususiyatlari**” deb nomlangan ilkkinchi bobida, ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlashuvchi o‘g‘il va qiz bolalar nutqining fonetik-intonatsion xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda L.V. Yassmanning “Bolalarda til komponentligi shakllanishini tadqiq etishning psixolingvistik metodi”dan foydalanib, 3-11 yoshli bolalarga mo‘ljallangan testlar majmui asosida empirik tahlil olib borildi. Psixolingvistik metodlar majmui nutqni tushunish va nutqning grammatik tuzilishini faol egallash hamda nutq ishlab chiqarish jarayonini gender prizmasida tahlil qilishga yo‘naltirilgan.

Bolalar nutqining fonetik va intonatsion shakllanishi psixolingvistik jihatdan bolaning fiziologik yetilishi, kognitiv rivoji va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, o‘g‘il bolalar nutqida fonetik xususiyatlar nisbatan kech shakllanib, bu jarayonda artikulyatsion soddalashtirish, tovushlarni almashtirish va kuchli emotsional intonatsiya ustunlik qiladi.

Ontogenez doirasida o‘g‘il bolalar nutqining fonetik-intonatsion rivojlanishi quyidagi asosiy bosqichlarda namoyon bo‘ladi:

1. Chaqaloqlik davri (0-1 yosh). Bu bosqichda tovush chiqarish asosan go‘ng‘illash va ag‘ullash shaklida bo‘lib, o‘g‘il bolalarda tovushlar past chastotali, ohangsiz va qisqa bo‘lishi kuzatiladi. Tovush chiqarish mimika va tana harakati bilan birga kechadi.

2. Ilk bolalik 1-3 yoshlar. Nutqning fonetik asoslari shakllanadi. O‘g‘il bolalar nutqida takroriy bo‘g‘inlar (“*pa-pa*”, “*bo-bo*”), noto‘g‘ri pauza qo‘yish va artikulyatsion beqarorlik kuzatiladi. Murakkab tovushlar soddalashtiriladi, nutq ko‘pincha imo-ishora bilan to‘ldiriladi.

3. Maktabgacha yosh 3-7 yoshlar. Bu davrda ayniqsa murakkab fonemalar [r], [sh], [ch], [j] talaffuzida muammolar ko‘p uchraydi. Masalan: “*raketa*” – “*yaketa*”, “*shokolad*” – “*chkolad*”, “*jo‘ja*” - “*zo‘za*”.

O‘g‘il bolalar ko‘p bo‘g‘inli va murakkab so‘zlarni qisqartirishga moyil bo‘ladilar. Masalan: “*televizor*” – “*tevizor*”, “*qulupnay*” – “*qupnay*”.

Bu jarayonda nutqda pauza tovushlari (“*eee*”, “*aa*”) paydo bo‘ladi, nafas olish va tana harakati kuchayadi. O‘g‘il bolalar nutqida intonatsiya kuchli emotsional-pragmatik yuklamaga ega:

So‘roq gaplarda ohang noto‘g‘ri joylashadi: *Sen bording MAKTABga?*

Buyruq va talab intonatsiyasi keskin va baland bo‘ladi: *Menga o‘shani BEEEEER!*

Bu nutq ko‘pincha musht qisish, qo‘l cho‘zish, qosh chimirish kabi harakatlar bilan birga kechadi. Rotatsizm ([r] va [l]) o‘g‘il bolalar orasida keng tarqalgan. Masalan: “*Rahmat*” – “*Laxmat*”, “*radio*” – “*ladio*”.

[sh] va [s] almashinuvi ham tez-tez uchraydi. Masalan: “*shirin*” – “*siyin*”, “*oshxona*” – “*osxona*”. Bu holatlar fonemik idrokning hali to‘liq shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

2023-yilda Farg‘ona viloyatida olib borilgan kuzatuvlarda 3-4 yoshli o‘g‘il bolalarning 56 % ida [r] tovushining noto‘g‘ri talaffuzi aniqlangan bo‘lsa, qiz bolalarda bu ko‘rsatkich 28 % ni tashkil etgan.

1-jadval

1–2 yoshli bolalar nutqidagi fonetik-intonatsion farqlar

Yosh	O‘g‘il bolalar nutqi	Qiz bolalar nutqi	Xarakteristika
1-1,5 yosh			
Dastlabki so‘zlar	mashina, koptok, ber	opa, chiroyli, bor	O‘g‘il bolalarda texnika, qizlarda ijtimoiy nutq
Tovush-taqlid	br-r-r, bam, tut-tut	miau, chik-chirik, ay-ay	O‘g‘il bolalarda texnik, qizlarda tabiat tovushlari
Intonatsiya	monoton, keskin ohang	ohangdor, his-hayajonli	Qiz bolalarda keng diapason
1,5-2 yosh			
So‘roq shakl	Bu nima?, Mashina qani?	Mumkinmi?, Iltimos, ber	O‘g‘il bolalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri, qiz bolalarda yumshoq
Buyruq shakl	Koptokni ber!, Och eshik!	Iltimos keling!, Birga o‘ynaymiz!	O‘g‘il bolalarda qat‘iy, qizlarda hamkorlik
Fonetik xatolar	[sh] va [s]: masina, sokolad	aniq talaffuz, kamroq xato	Qiz bolalarda tezroq to‘g‘rilanish

Mazkur xususiyatlar o‘g‘il bolalar nutqining psixolingvistik rivojlanishida tabiiy bosqich bo‘lib, ularni erta aniqlash va tizimli pedagogik-logopedik yondashuv asosida korreksiya qilish bolaning kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bolalar nutqining fonetik-intonatsion rivojlanishi psixolingvistika nuqtai nazaridan biologik yetilish, psixologik rivojlanish va ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qiz bolalar nutqi fonetik aniqlik, intonatsion boylik va emotsional ifodalilik jihatidan o‘g‘il bolalarnikiga nisbatan erta va barqarorroq shakllanadi.

Ko‘plab empirik tadqiqotlarga ko‘ra, qiz bolalarda dastlabki so‘zlar o‘rtacha 10-11 oylikda, o‘g‘il bolalarda esa 12-13 oylikda paydo bo‘ladi. Ikki yoshga kelib qiz bolalar faol lug‘ati o‘rtacha 250–300 ta so‘zni, o‘g‘il bolalar esa 200-250 ta so‘zni tashkil etadi. 4 yoshda esa bu ko‘rsatkich qizlarda 1500-1800 ta, o‘g‘il bolalarda 1200-1500 ta so‘z atrofida bo‘ladi.

Psixolingvistik jihatdan bu ustunlik qiz bolalarda verbal xotira, fonematik idrok va eshitish differensialligining erta rivojlanishi bilan izohlanadi. Natijada, ular tovushlarni aniq talaffuz qilish, intonatsiyani vaziyatga mos boshqarish va nutqni emotsional jihatdan boy ifodalashga moyil bo‘ladilar.

Fonetik rivojlanishda qiz bolalar tovush tizimini tezroq va kamroq xatolik bilan egallaydilar. Tadqiqotlarga ko‘ra, 4-5 yoshli qiz bolalarda fonetik xatolar 15-20 % ni tashkil etsa, o‘g‘il bolalarda bu ko‘rsatkich 25-30% ga yetadi; portlovchi undoshlarni ([p], [b], [t], [d]) 2-2,5 yoshda; sirg‘aluvchi va shovqinli tovushlarni ([s], [z], [sh], [j]) 3-3,5 yoshda; ([r]) tovushini esa ko‘pincha 4-4,5 yoshda to‘liq o‘zlashtiradilar.

Bu jarayonda artikulyatsion apparatning nozik va muvofiqlashtirilgan harakati muhim rol o'ynaydi. Qiz bolalarda til, lab va jag' mushaklari ustidan nazorat yaxshiroq bo'lgani sababli murakkab fonemalar aniqroq talaffuz qilinadi.

Bo'g'in strukturasi o'zlashtirishda ham qiz bolalar ustunlik qiladi. 3-4 yoshda qiz bolalar ko'p bo'g'inli so'zlarni to'liq talaffuz qilishga moyil bo'lib, bo'g'inlarni tushirib qoldirish yoki takrorlash holatlari ularda 15-20 % kamroq uchraydi. Masalan, kuzatuvlarda: o'g'il bola: "velosiped" – "vesiped", "televizor" – "tevizor"; qiz bola: "velosiped", "televizor" shakllari aniq talaffuz qilingan.

Bu holat qiz bolalarda fonologik xotira va bo'g'in chegaralarini aniqlash qobiliyatining yaxshiroq rivojlanganini ko'rsatadi.

Empirik kuzatuvlarga ko'ra, 5-6 yoshli qiz bolalar dialogik nutqda o'rtacha 7-8 xil intonatsion konstruksiyadan foydalanadi, o'g'il bolalar esa 3-4 xil konstruksiya bilan cheklanadi. Shu sababli qiz bolalar suhbatni o'rtacha 2,5 barobar uzoqroq davom ettiradilar.

5 yoshli qiz bola suhbat davomida quvonch, hayrat, sirli ohang va biroz g'amgin intonatsiyani ketma-ket qo'llab, ovoz balandligi va tempni o'zgartiradi. Bu intonatsion moslashuv nafaqat axborot yetkazish, balki suhbatdosh e'tiborini ushlab turish vazifasini ham bajaradi.

Qiz bolalar nutqida sinonimlardan foydalanish yuqori bo'lib, bu fonetik-intonatsion xilma-xillikni ham kuchaytiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, 4-5 yoshli qiz bolalar 10 daqiqalik nutqda o'rtacha 12-15 ta sinonim ishlatadi, o'g'il bolalarda bu ko'rsatkich 5-7 ta bilan cheklanadi. 6-7 yoshda farq 2,2 barobar, 8-9 yoshda esa 2,5 barobarga yetadi. Masalan qiz bola: "ajoyib, chiroyli, go'zal, zavqli"; o'g'il bola: asosan "yaxshi", "zo'r". Bu leksik boylik intonatsion ifodalilikni ham oshirib, nutqni jonli va ta'sirchan qiladi.

Qiz bolalar nutqining fonetik-intonatsion xususiyatlari aniqlik, ohangdorlik va emotsional ifodalilik bilan tavsiflanadi. Ular tovushlarni tezroq va kamroq xato bilan o'zlashtiradi, bo'g'in strukturasi aniq saqlaydi hamda dialogik nutqda intonatsion vositalardan faol foydalanadi.

O'zbek va ingliz tillari fonetik tuzilishidagi farqlar bolalar nutqida tovushlarni o'zlashtirish ketma-ketligi, bo'g'in tuzilishi, urg'u, ritm va intonatsion modellarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois mazkur tillarda bolalar nutqining rivojlanishi umumiy biologik qonuniyatlarga bo'ysunsa-da, tilga xos xususiyatlar asosida farqlanadi.

O'zbek tilida 6 ta unli fonema (a, o, i, u, e, o') mavjud bo'lib, unililar uzun-qisqa oppozitsiyasiga ega emas. Ingliz tilida esa 12 ta sof unli va 8 ta diftong mavjud bo'lib, unilarning uzun-qisqa qarama-qarshiligi muhim fonologik belgi hisoblanadi.

Natijada: o'zbek bolalari ingliz tilidagi /i:/ va /ɪ/, /u:/ va /ʊ/ kabi juftliklarni farqlashda qiynaladilar (*sheep* va *ship*);

ingliz bolalari esa o'zbek tilidagi "o'" unlisini talaffuz qilishda qiyinchilikka duch keladilar, chunki bu fonema ingliz tilida mavjud emas.

Shuningdek, ingliz tilidagi diftonglar (*time, boy, now*) o'zbek bolalari uchun murakkab hisoblanadi, chunki o'zbek tilida diftonglash deyarli uchramaydi.

O'zbek va ingliz tillarida undoshlar soni taxminan teng bo'lsa-da (24 ta), ularning fonologik va artikulyatsion xususiyatlari farqlidir.

O‘zbek va ingliz tili bolalar nutqida uchraydigan fonetik patologiyalar

O‘zbek tilida uchraydigan asosiy patologiyalar	Misollar	Ingliz tilida uchraydigan asosiy patologiyalar	Misollar
Rotatsizm (“r” tovushi muammosi)	“ruchka” – “luchka”	Rhotacism (“r” tovushi muammosi)	“rabbit” – “wabbit”
Lambdatsizm (“l” tovushi muammosi)	“lola” – “yoya”	Gliding (“l”, “r” ning almashtirilishi)	“light” – “wight”
Sigmatizm (“s”, “z” muammosi)	“salom” – “thalom”	Frontal lisp (“s”, “z” o‘rniga “th”)	“sun” – “thun”
Gammatsizm (“g”, “g’” muammosi)	“gul” – “dul”	Lisp (interdental muammo, “th”)	“this” – “dis”
Kappatsizm (“k”, “q” muammosi)	“kitob” – “titob”	Cluster reduction (birikmalar soddalasishi)	“stop” – “top”

Qiyosiy misollar shuni ko‘rsatadiki o‘zbek bolalari ingliz tilidagi think, this so‘zlarida [θ], [ð] tovushlarini s/t, z/d bilan almashtiradi (*think* – *sink/tink*); ingliz bolalari o‘zbek tilidagi q, g‘tovushlarini k, g bilan almashtirishga moyil bo‘ladilar (*qalam* – *kalam*).

Psixolingvistik kuzatuvlarga ko‘ra, tovushlarni o‘zlashtirish har ikkala tilda ma’lum ketma-ketlik asosida kechadi, biroq murakkab tovushlar turlicha bosqichda paydo bo‘ladi.

O‘zbek bolalarida avval unlilar va lab undoshlari, so‘ng til oldi va til orqa undoshlari, eng oxirida esa ch/sh/j kabi murakkab tovushlar o‘zlashtiriladi. Ingliz bolalarida esa stop tovushlardan so‘ng frikativlar, likvidlar va interdental tovushlar egallanadi. Masalan, ingliz bolalarida r va th tovushlarini 6-7 yoshgacha to‘liq egallamaslik holatlari keng tarqalgan (rabbit - wabbit).

O‘zbek tilida bo‘g‘in tuzilishi nisbatan sodda (CV, CVC), undoshlar birikmasi so‘z boshida kam uchraydi. Ingliz tilida esa murakkab undosh klasterlari keng tarqalgan (*spring, strength*). Natijada: o‘zbek bolalari inglizcha undosh birikmalarni talaffuz qilishda qo‘shimcha unli qo‘shadi (*spring* – *sipring*); ingliz bolalari esa o‘zbekcha so‘zlarni nisbatan oson talaffuz qiladi, ammo chuqur til orqa tovushlarida qiynaladi.

O‘zbek tilida urg‘u asosan so‘z oxiriga tushadi, ingliz tilida esa urg‘u o‘zgaruvchan bo‘lib, so‘z ma’nosini farqlashi mumkin (*present* – *present*).

Shu sababli, o‘zbek bolalari ingliz tilida barcha bo‘g‘inlarni teng talaffuz qilishga moyil bo‘ladilar, ingliz bolalari esa o‘zbek tilida bo‘g‘inlarni notekis urg‘ulashlari mumkin.

O‘zbek tilida intonatsion konturlar nisbatan sodda bo‘lsa, ingliz tilida intonatsiya gap turini va so‘zlovchining munosabatini belgilovchi asosiy vositadir. Masalan, ingliz tilida “*Really?*” so‘zi turli intonatsiya bilan butunlay boshqa ma’no kasb etadi.

Bu holat o‘zbek bolalari uchun ingliz tilidagi emotsional va pragmatik intonatsiyani o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O‘zbek bolalar nutqida tovush qo‘shish, metateza hamda [r] va [l] almashinuvi (rotatsizm) ko‘proq kuzatiladi. Ingliz bolalar nutqida esa undosh klasterlarini soddalashtirish va interdental tovushlarni ([θ], [ð]) almashtirish ustunlik qiladi.

Psixolingvistik jihatdan bu xatolar fonologik tizim shakllanayotganining tabiiy bosqichi bo‘lib, bolaning tilni faol tahlil qilayotganini aks ettiradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz bolalar nutqidagi fonetik-intonatsion farqlar har bir tilning fonologik tuzilishi, artikulyatsion bazasi va prosodik tizimi bilan belgilanadi. O‘zbek bolalar uchun ingliz tilidagi diftonglar, interdental tovushlar va urg‘u-ritm tizimi murakkab bo‘lsa, ingliz bolalar uchun o‘zbek tilidagi chuqur til orqa tovushlari va doimiy urg‘u tizimi qiyinchilik tug‘diradi. Ushbu farqlarni hisobga olish bolalar nutqini baholash, ikkinchi tilni o‘rgatish hamda logopedik va pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dissetatsiyaning uchinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek tillarida bolalar nutqining leksik-semantik strukturasi**” deb nomlanib, unda bolalar nutqi leksik-semantik tizimi, gender, yosh va til xususiyatlari asosida qiyosiy tahlil qilinadi.

Ushbu bob tadqiqotning markaziy empirik bosqichi hisoblanadi. 3-11 yoshli ingliz va o‘zbek bolalari nutqida leksik-semantik birliklarning shakllanish jarayoni, ularning gender kesimidagi farqlari chuqur o‘rganilgan. Bobda bolalar nutqining asosiy tematik qatlamlari: oila, hayvonot va tabiat, texnika, harakat, o‘yin, fan va maktab, mavhum tushunchalar, ko‘chma so‘zlar, emotsional va baholovchi birliklar, sleng va jargon guruhlari alohida namoyon bo‘ladi.

Bolaning leksik-semantik rivoji dastlab sezgi tajribasiga, keyinchalik esa muloqot va ijtimoiy muhit ta’siriga asoslanadi. Bola avval predmet va hodisalarni idrok etadi, so‘ng ularni nomlashga o‘tadi. Nutq rivojlanishi jarayoni bosqichma-bosqich kechib, har bir yosh davrida leksik tarkib va semantik tuzilma murakkablashib boradi.

Mazkur bobda ingliz va o‘zbek til muhitida voyaga yetayotgan o‘g‘il bolalar nutqining leksik-semantik xususiyatlari empirik materiallar asosida qiyosiy-tavsifiy yo‘sinda yoritildi. Tadqiqot uch bosqichli dizayn asosida tashkil etilib, unda 3-7 hamda 7-11 yosh toifalariga mansub jami 120 nafar respondent ishtirok etdi. Eksperimental-diagnostik jarayonda L.V. Yassman tomonidan ishlab chiqilgan, bolalarda tilning komponentlari (leksik, semantik va grammatik jihatlar) shakllanish darajasini aniqlashga qaratilgan psixolingvistik metodika qo‘llandi. Olingan natijalar kvantitativ (lug‘at hajmi, birliklar chastotasi) va sifat (tematik qatlamlar, semantik maydonlar, kommunikativ niyat) tahlili asosida izohlandi.

1-2 yosh: birlamchi leksik zaxiraning shakllanishi. Ushbu yosh davrida o‘g‘il bolalar nutqida birlamchi leksik minimum yuzaga kelib, u asosan kundalik turmush predmetlari, yaqin shaxslar hamda sodda harakatlarni ifodalovchi birliklar bilan xarakterlanadi. Kuzatuvlarga ko‘ra, o‘zbek tilidagi respondentlarda *mashina, koptok, ber, yo‘q, dada* kabi, ingliz tilidagi respondentlarda esa *car, ball, go, up, daddy* kabi leksemalar nisbatan ustun qo‘llangan.

1,5-2 yosh oralig‘ida lug‘at hajmi o‘rtacha 200-300 so‘z atrofida shakllanishi qayd etilib, ikki so‘zli elementar sintaktik konstruksiyalar paydo bo‘la boshlaydi: o‘zbekcha: “*Dada keldi*”, “*Koptok ber*”; inglizcha: “*Daddy come*”, “*Give ball*”. Mazkur bosqichda harakat fe’llari hamda transport vositalariga oid leksika dominant sifatida namoyon bo‘ladi; shuningdek, buyruq shakllarining muloqot yuklamasi yuqori ekanligi (masalan, “*Ber!*”, “*Give!*”) ma’lumotlar bilan tasdiqlandi.

2-3 yosh oralig'ida o'g'il bolalar lug'atida jadallashgan o'sish leksik ekspansiya kuzatildi. O'zbek tilidagi respondentlarda 2,5 yoshda 450–500 ta, 3 yoshga kelib esa 800–1000 ta so'z birliklari qayd etildi; ingliz tilidagi guruhda ham mutanosib ko'rsatkichlar namoyon bo'ldi. Bu davrga xos asosiy psixolingvistik indikatorlar quyidagilar bilan izohlanadi: 1. so'roq konstruksiyalarining faollashuvi (*"Bunima?" / "What's that?"*); 2. sodda gaplardan kengaygan va nisbatan murakkab tuzilmalarga o'tishning boshlanishi; 3. neologizm va ijodiy so'z yasashning yuzaga kelishi (o'zbekcha: *uxlagich*; inglizcha: *opener, fixer* kabi).

Semantik jihatdan texnika, transport hamda dinamika-harakatni bildiruvchi birliklar (masalan, *traktor, mashina, yugurmoq / truck, run*) mazkur yosh bosqichining yetakchi tematik qatlamini tashkil etdi.

3-4 yosh davrida grammatik kategoriyalarni o'zlashtirish jarayoni faol bosqichga o'tadi. O'zbek tilidagi respondentlarda kelishik qo'shimchalarining nutqda barqarorlashuvi, ingliz tilidagi respondentlarda esa predloglar tizimining (masalan, *in, on, to*) muntazam qo'llana boshlashi aniqlanadi. Ko'plik shakllari (*bolalar, cars*) hamda zamon kategoriyalarining faol ishlatilishi nutqning struktur-semantik rivojiga xizmat qiladi.

O'g'il bolalar nutqida kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan, qisqa, aniq va imperativ tipdagi gaplarning nisbiy ustunligi saqlanib qoladi: o'zbekcha: *"Ber menga!", "Ketdik!"*; inglizcha: *"Give me!", "Come here!"*.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, ingliz va o'zbek o'g'il bolalar nutqida quyidagi leksik-semantik maydonlar nisbatan dominant hisoblanadi: harakat va faoliyat (o'zbekcha: *yugurmoq, sakramoq*; inglizcha: *run, jump*); texnika va transport (*mashina, robot / car, truck, robot*); sport va raqobat (*gol, yutmoq / goal, win*); tabiat va kuch timsollari (*dinozavr, sher / dinosaur, lion*).

Shuningdek, emotsional leksika asosan "kuch-g'alaba-jasorat" semantik uchligi doirasida shakllanishi, salbiy hissiyotlarning esa kamroq va qisqa verbal shakllarda ifodalanishi kuzatildi.

7-11 yoshda, ya'ni kichik maktab yoshida o'g'il bolalar nutqi leksik-semantik jihatdan yetuk bosqichga ko'tarilib, fan-texnika bilan bog'liq birliklar hamda mavhum tushunchalarni ifodalovchi leksemalar nutqqa kirib keladi (masalan: *adolat, mas'uliyat / justice, responsibility*). Bu davrda terminologik leksika bilan bir qatorda, tengdoshlar muloqotiga xos bo'lgan sleng va jargon unsurlarining faollashuvi ham qayd etiladi (*level, bonus / cool, awesome* va b.).

Empirik kuzatuvlarga tayangan holda, mazkur yosh toifasidagi o'g'il bolalar nutqiga quyidagi tendensiyalar xosligi asoslandi: ma'no jihatidan konkretlik va funktsionallikka urg'u berish; obrazli hamda ko'chma ma'noli birliklarni nisbatan sekinroq o'zlashtirish; fikrni mantiqiy izchillik va dalillilik asosida bayon qilishga intilish.

Umuman olganda, olingan natijalar o'g'il bolalar nutqida yoshga xos leksik o'sish dinamikasi hamda semantik ustuvorliklarning (harakat, texnika, raqobat, kuch timsollari) ikki til muhitida ham o'xshash yo'nalishda namoyon bo'lishini, biroq grammatik vositalar realizatsiyasida (o'zbek tilida *qo'shimchalar*, ingliz tilida *predloglar*) tipologik tafovutlar saqlanishini ko'rsatdi.


Qiz bolalar nutqining leksik-semantik rivojlanishi gender omili, emotsional sezgirlik va ijtimoiy-madaniy muhit ta'siri ostida shakllanadigan murakkab va ko'p qatlamli jarayondir. Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qiz bolalar

nutqida soʻz boyligi erta kengayadi, emotsional-ekspressiv birliklar faol ishlatiladi hamda tasviriy va baholovchi leksika ustunlik qiladi. Ingliz va oʻzbek tillarida bu jarayon umumiy rivojlanish qonuniyatlariga asoslangan boʻlsa-da, milliy madaniyat, tarbiya va til muhiti taʼsirida oʻziga xos koʻrinishlarga ega boʻladi.

Ilk bolalik davrida (0–1 yosh) qiz bolalar nutqida tovush va intonatsiya, avvalo, emotsional vazifani bajaradi. Oʻzbek qiz bolalarida “*ma-ma*”, “*gu-gu*”, “*aya*” kabi tovushlar jilmayish, qoʻl choʻzish va koʻz bilan aloqa orqali yaqinlikni ifodalaydi. Masalan, 9–10 oylik oʻzbek qizaloq “*aya*” soʻzini aytar ekan, qoʻllarini uzatib, mehr va ehtiyojni bildiradi. Ingliz muhitida esa “*goo-goo*”, “*awww*”, “*mommy*” kabi tovushlar quvnoq va oʻyin intonatsiyasida yangrab, ona-bola oʻrtasidagi hissiy bogʻlanishni mustahkamlaydi. 10–12 oylikda paydo boʻladigan dastlabki soʻzlar semantik jihatdan ijobiy baho va iliqlikni anglatadi: oʻzbek qiz bolalari “*suv*”, “*olma*”, “*chiroyli*” kabi soʻzlarni, ingliz qiz bolalari esa “*milk*”, “*apple*”, “*pretty*”, “*cute*” kabi birliklarni emotsional ohang bilan ishlatadi. Bu bosqichda soʻzlar predmetni nomlashdan koʻra, munosabat va hissiyot ifodasi sifatida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

1-2 yosh oraligʻida qiz bolalar lugʻati jadal kengayib, emotsional va ijtimoiy leksika yetakchi oʻrinni egallaydi. Oʻzbek qiz bolalar nutqida “*opa*”, “*onam*”, “*jonim*”, “*quchoqla*”, “*koʻylak chiroyli*” kabi birliklar tez-tez uchraydi. Masalan, “*Onam chiroyli*” iborasi tashqi bahodan koʻra, mehr-muhabbat va ijobiy munosabatni ifodalaydi. Ingliz qiz bolalarida esa “*hug*”, “*love you*”, “*my teddy*”, “*pretty dress*” kabi birikmalar yaqinlik, xavfsizlik va hissiy barqarorlikni bildiradi. Shu bosqichda ikki-uch soʻzli gaplar shakllanadi: oʻzbekcha “*Koʻylagim chiroyli*”, “*Onam keldi*”; inglizcha “*My dress is pink*”, “*Mommy help me*”.

2-3 yosh oraligʻida qiz bolalar nutqida “leksik portlash” hodisasi yuz beradi. Soʻz boyligi keskin oshib, ranglar, kiyim-kechak, oila aʼzolari, shirinliklar va kundalik hayotga oid leksika faol ishlatiladi. Oʻzbek qiz bolalari “*uxlagich*”, “*chizgich*” kabi ijodiy neologizmlar yaratib, soʻz yasash imkoniyatlarini intuitiv tarzda qoʻllaydi. Ingliz qiz bolalarida esa “*sleepy place*”, “*draw-thing*”, “*talker*” kabi birliklar uchraydi. Masalan, “*Bu pushti koʻylak chiroyli*”, “*Buvi menga ertak aytdi*” (oʻzbekcha) yoki “*I want my pink dress*”, “*Grandma read me a story*” (inglizcha) kabi gaplar nutqda tez-tez qoʻllanadi. Bu davrda quvonch, sogʻinch va xohish faol ifodalanadi: “*Men xursandman*”, “*I am so happy*”. 2–3 yoshdagi lugʻat hajmi va tematik tarkib.



1-rasm. Qiz va oʻgʻil bolalarning 1-2 yoshda soʻz boyligi koʻrsatkichlari

3-4 yoshda qiz bolalar nutqi grammatik va semantik jihatdan murakkablashib, tasviriylik va obrazlilik kuchayadi. O'zbek qiz bolalarida "Ko'ylagim moviy va gullari bor", "Opam gullardek chiroyli" kabi kengaytirilgan va baholovchi gaplar, ingliz qiz bolalarida esa "My dress is sparkly and blue", "She's as pretty as a flower" kabi obrazli ifodalarni faol ishlatiladi. Bu bosqichda rang, bezak, tashqi ko'rinish va emotsional bahoga oid leksika yetakchi bo'lib, "Bu bantik juda chiroyli" yoki "My shoes are shiny" kabi misollar qiz bolalar nutqining estetik yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Qiz bolalar lug'atining tematik ustunliklari (oila, kiyim-kechak, bezaklar, emotsiyalar, tabiat).

Kichik maktab yoshida (7-11 yosh) qiz bolalar nutqida leksik-semantik yetuklik va abstraksiyalashuv jarayoni yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbek qiz bolalari "do'stlik", "mas'uliyat", "ko'nglim uchib yurdi" kabi mavhum va obrazli birliklarni, ingliz qiz bolalari esa "friendship", "responsibility", "my heart was flying" kabi ifodalarni nutqida qo'llaydi. Shu bilan birga, zamonaviy kommunikativ muhit ta'sirida "like", "post", "emoji", "awesome" singari atamalar kundalik muloqotga kirib keladi. Masalan, "Do'stim rosa ranjidi, uni ovutdim" yoki "She was so excited at the party" kabi gaplar qiz bolalar nutqida emotsional va ijtimoiy munosabatlarning keng ifodalanishini ko'rsatadi.

Har ikki til muhitida ham qiz bolalar nutqida rang, kiyim-kechak, oila, his-tuyg'ular va ijtimoiy munosabatlarga oid leksika ustun bo'lib, ularning nutqi o'g'il bolalarnikiga nisbatan kengroq, obrazli va emotsionalroq shakllanadi.

Bolalar nutqini gender nuqtai nazaridan o'rganish zamonaviy psixolingvistika va sotsiolingvistikada muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar nutqida jinsga oid farqlar erta yoshdanoq namoyon bo'lib, ular nafaqat biologik omillar, balki ijtimoiy-madaniy muhit, tarbiya va muloqot strategiyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ingliz va o'zbek tillarida bu farqlar umumiy qonuniyatlarga tayansa-da, har bir tilning grammatik tuzilishi va madaniy konteksti orqali o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi.

Fonetik darajada ham gender tafovutlar kuzatiladi. J. Cheshir va E. Savndrs tadqiqotlariga ko'ra, ingliz qiz bolalari [r], [θ], [ð] kabi murakkab fonemalarni o'g'il bolalarga nisbatan 7-10 oy oldin to'g'ri talaffuz qila boshlaydi. O'zbek bolalarida ham qizlar [r], [sh], [ch] kabi tovushlarni erta va barqarorroq egallaydi. Bu holat artikulyatsion apparat va fonematik idrok rivojidadagi farqlar bilan izohlanadi. Masalan, o'zbek qiz bolalarida *gulim*, *oyijonim*, ingliz qiz bolalarida *daddy's princess*, *darling* kabi ijtimoiy-emotsional kodlar keng tarqalgan.

Sintaktik jihatdan qiz bolalar murakkab gaplarni erta egallaydi. A. Katler va T. Kempbill tadqiqotlari ingliz qiz bolalarida qo'shma gaplar 5-6 yoshda faol ishlatilishini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa *agar...*, *chunki* kabi bog'lovchilar orqali murakkab gap tuzish ko'nikmasi qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan 6-8 oy oldin shakllanadi.

Sintaktik tuzilishda ham farq mavjud: o'zbek tilida SOV, ingliz tilida SVO modeli ustun. O'zbek bolalari kesimni gap oxirida joylashtirishni o'rtacha 3 yoshda, ingliz bolalari esa SVO tartibini 2,5 yoshda barqaror qo'llay boshlaydi. Ikki tilli muhitda esa interferensiya holatlari kuzatiladi: *I have kitobni o'qigan*, *Men played bog'chada* kabi aralash tuzilmalar buning dalilidir.

Ijtimoiy-madaniy muhit gender xoslanishlarni yanada mustahkamlaydi. O'zbek oilalarida qiz bolalarga muloyimlik va hurmatga asoslangan nutq, o'g'il

bolalarga esa qat'iyat va qisqa ifoda tavsiya etiladi. Ingliz oilalarida esa bolalarning savol berishi va fikrini erkin ifodalashi rag'batlantiriladi. Bu farq qiz va o'g'il bolalar nutqidagi mavzu tanlovi va ifoda uslubida yaqqol aks etadi.

3-jadval

Ingliz va o'zbek bolalari nutqining rivojlanish bosqichlari

Til jihati	O'zbek tili	Ingliz tili
Fonetik bosqich (6-8 oy)	ma-ma, da-da, ba-ba (universal tovushlar)	ma-ma, da-da, ba-ba (universal tovushlar)
Telegraf bosqichi (1.5-2 yosh)	"Oyi kel" (ega + kesim (tuslanmagan))	"Mummy come" (sub+verb)
Murakkab fonemalarni o'zlashtirish	[r], [q], [x.h] 2.5-3.5 yoshgacha o'zlashtiriladi	[θ], [ð], [r] 3-4 yoshgacha o'zlashtiriladi
Morfologik tuzilma	Agglutinatív, qo'shimchalarga boy (-ni, -da, -lar)	Analitik, yordamchi so'zlar (the, is, have)
Sintaktik so'z tartibi	SOV (ega + to'ldiruvchi + kesim)	SVO (subject + verb + object)
Grammatik vositalarni o'zlashtirish	Qo'shimchalarni erta o'zlashtiradi (-im, -ing)	Artikl, predlog, yordamchi fe'llar kech o'zlashtiriladi
Fonetik xatolar misoli	"qor" o'rniga "qoy", "hamma" o'rniga "amma", "xola" o'rniga "lola"	"this" o'rniga "dis", "three" o'rniga "free"
Murakkab gap tuzilmasi	"Men kitobni o'qiganim uchun kechikdim"	"I didn't go because I was tired"

4-jadval

Ingliz va o'zbek bolalarida ko'p ishlatiladigan so'z va iboralar

Yosh oralig'i	O'zbek bolalarida ko'p ishlatiladigan so'z va iboralar	Ingliz bolalarida ko'p ishlatiladigan so'z va iboralar
1-3 yosh	ona, dada, bola, non, ber, yo'q, bola uxla, ko'z, qo'l, kel, o'yinchoq	mom, dad, baby, milk, no, yes, more, toy, ball, dog, sleep, bye
3-7 yosh	men, sen, aka, opa, kichkina, katta, maktab, dars, ustoz, do'stim, o'yin, yaxshi, hamma	I, you, bro, sister, grandpa, school, teacher, friend, play, good, everyone, happy, like, game
7-11 yosh	maktab, sinfdosh, kitob, vazifa, dars, muxlis, jamoa, do'stlik, xalq, internet, "like", kompyuter, "laptop", yaratmoq, hayajon, baho, "planshet"	school, classmate, homework, subject, teacher, friendship, team, internet, game, like, computer, awesome, score, project, funny

Jadval so'zlardan foydalanish chastotasida yoshga mos taraqqiyotni va har ikki madaniyatga xos asosiy misollarni aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillarida bolalar nutqidagi genderga oid xususiyatlar ko'p jihatdan o'xshash: qiz bolalar emotsional va ijtimoiy, o'g'il bolalar esa faol va dominant nutq strategiyalariga moyildir. Farqlar fonetik, leksik, morfologik va sintaktik darajalarda, shuningdek madaniy gender stereotiplarida namoyon bo'ladi. Ushbu jihatlarni psixolingvistik yondashuv asosida o'rganish bolalar nutqini sog'lom rivojlantirish, ta'lim va ikki tillilik jarayonlarini samarali tashkil etish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Genderga oid nutqiy me'yorlar jamiyatning madaniy qadriyatlari va ijtimoiy rollari asosida shakllanadi hamda bolalar nutqida jinsga xos semantik va pragmatik farqlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu me'yorlar bola ijtimoiylashuvi jarayonida, avvalo, oila, tengdoshlar guruhi, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiya muhiti orqali o'zlashtiriladi.

Oila bola uchun birlamchi nutqiy model hisoblanadi. O‘zbek oilalarida qiz bolalarga ko‘proq muloyimlik va mehrni ifodalovchi murojaatlar ishlatiladi: “qizim”, “jonim”, “malikam”, “parim”. Masalan, ona qiziga: “Qizim, sen juda chiroyli va muloyimsan” deya murojaat qiladi. Ingliz oilalarida ham xuddi shunday holat kuzatiladi: “sweetheart”, “darling”, “honey”, “princess” (“You’re my sweet princess”).

O‘g‘il bolalarga esa kuch va jasoratni bildiruvchi birliklar nisbatan ko‘p qo‘llanadi. O‘zbek tilida: “botir”, “jasur o‘g‘lim”, “pahlavon”, ingliz tilida esa “champ”, “hero”, “brave boy” (“You’re a brave boy, champ”). Bu murojaatlar o‘g‘il bolalarda erkaklik, qat’iyat va liderlik tasavvurini shakllantiradi.

5-jadval

Ingliz va o‘zbek oilalarida qiz va o‘g‘il bolalarga ishlatiladigan murojaatlar

Gender	O‘zbek oilalarida ishlatiladigan murojaatlar	Ingliz oilalarida ishlatiladigan murojaatlar
Qiz bola	qizim, jonim, malikam, yaxshi ko‘raman, muhabbatim, parim	sweetheart, darling, honey, princess, lovely
O‘g‘il bola	botir, yigit, jasur o‘g‘lim, qahramon, aslan, pahlavon	champ, buddy, young man, hero, brave boy, tiger





Tengdoshlar o‘rtasida genderga xos nutqiy me‘yorlar norasmiy shaklda mustahkamlanadi. O‘zbek qiz bolalari bir-biriga “go‘zalim”, “opoq qiz”, ingliz qizlari esa “pretty girl”, “cutie” deb murojaat qiladi. O‘g‘il bolalar esa o‘zbek tilida “aka”, “do‘st”, ingliz tilida “bro”, “mate”, “buddy” kabi jamoaviylikni bildiruvchi so‘zlarni faol ishlatadi.

Maktab muhitida jargon va slanglar paydo bo‘ladi. Masalan, o‘zbek o‘g‘il bolalari sport jarayonida “gol urdim”, “gap yo‘q”, ingliz o‘g‘il bolalari esa “score”, “cool”, “GG” kabi birliklardan foydalanadi. Qizlar esa “bestik” yoki ingliz tilida “BFF” qisqartmalarini qo‘llaydi.

6-jadval

Ingliz va o‘zbek bolalar nutqida ishlatiladigan so‘z va iboralarning sotsiolingvistik asosi

Muhit/Guruh	O‘zbek tilida ishlatiladigan so‘z, ibora va atamalar	Ingliz tilida ishlatiladigan so‘z, ibora va atamalar
Diniy va madaniy	Assalomu alaykum, Xudo xohlasa, Inshaalloh, Xudo asrasin	God bless you, Thank God, Merry Christmas
Tengdoshlik (qizlar)	opoq, go‘zal, yaxshi qiz	pretty girl, cutie, sweetie
Tengdoshlik (o‘g‘il)	aka, yigit, do‘st	bro, mate, dude, buddy
Maktab jargonlari	gol urmoq, assist, penalti, bestik, gap yo‘q	score, pass, foul, BFF, cool, lit

Zamonaviy raqamli muhit genderga oid nutqiy me‘yorlarni yangi shaklda namoyon etmoqda. O‘zbek qiz bolalari onlayn yozishmalarda hissiy va bezakli ifodalarni ishlatadi: “Sog‘indim  ”, ingliz qizlari esa “Miss you ”, “That’s so cute ”. O‘g‘il bolalar esa texnik va o‘yin jargonlariga moyil: “rush qilamiz”, “carry qildim”, ingliz tilida “noob”, “pro”, “GG”, “AFK”.

Bu holat qizlar nutqining emotsional-ekspressiv, o‘g‘il bolalar nutqining esa texnik va raqobatga yo‘naltirilganligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillarida genderga oid nutqiy me‘yorlar bir xil ijtimoiy bosqichlarda shakllansa-da, ularning ifodalanish vositalari farqlidir.

O‘zbek tilida gender ko‘proq an’anaviy leksik va grammatik markerlar orqali ifodalansa, ingliz tilida leksik tanlov va gender neytral birliklar ustunlik qiladi. Har ikki muhitda ham qiz bolalar nutqida iliqlik va emotsionallik, o‘g‘il bolalar nutqida esa kuch, faoliyat va jamoaviylik semantikasi yetakchi bo‘lib qolmoqda.

Pragmatika nutqiy muloqotda til birliklarining qanday maqsadda, qanday vaziyatda va qanday ta’sir bilan qo‘llanilishini o‘rganadi. Bolalar nutqida pragmatik jihat ayniqsa muhim bo‘lib, bola tilni nafaqat grammatik va semantik tizim sifatida, balki ijtimoiy munosabat vositasi sifatida ham o‘zlashtiradi. Shu sababli, genderga oid nutqiy farqlar bolalar muloqotida eng avvalo nutqiy aktlar, muloyimlik va muloqot strategiyalar darajasida namoyon bo‘ladi.

Jahon tilshunosligida bolalar nutqining pragmatik jihatlari E. Beloglazova, O. Strogonova, G. Dobrova, V. Korolev kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, bu ishlar ko‘proq deydik birliklar va grammatik vositalar bilan cheklangan. O‘zbek tilshunosligida esa pragmatik tadqiqotlar nisbatan kam bo‘lib, bolalar nutqining genderga oid pragmatik xususiyatlari hali yetarli darajada qiyosiy o‘rganilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek bolalari nutqini gender-pragmatik aspektda tahlil qilishi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy aktlar (iltimos, buyruq, taqiqlash, taklif, minnatdorchilik) bolalarda bosqichma-bosqich shakllanadi va ularning tanlanishida gender omili muhim rol o‘ynaydi.

1-3 yoshda nutqiy aktlar juda sodda bo‘ladi. O‘zbek qiz bola yumshoq intonatsiya bilan: *“ber-ber”*, *“ona, iltimos”* deydi; ingliz qiz bola: *“mama, please”*. O‘zbek o‘g‘il bola ko‘proq buyruqona shakllardan foydalanadi: *“ol!”*, *“ber!”*; ingliz o‘g‘il bola: *“mine!”*, *“give!”*. Bu bosqichda qizlar nutqida emotsional yaqinlik, o‘g‘illarda esa talabchanlik ustun bo‘ladi.

3-7 yoshda nutqiy strategiyalar murakkablashadi. Qiz bolalar iltimos va kelishuv strategiyalarini tanlaydi: (o‘zb) *“O‘rtoq, iltimos, qo‘g‘irchog‘ingni berib tursang”*; (ing): *“Can I play with your doll, please?”* O‘g‘il bolalar esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri va raqobatga yo‘naltirilgan aktlardan foydalanadi: *“Koptog‘ingni ber!”*, *“Pass me the ball!”*

7-11 yoshda nutqiy aktlar ijtimoiy vaziyatga moslashadi. Qiz bolalar hurmat va politeness markerlarini faol qo‘llaydi: *Ustoz, savolimga javob berib qo‘ysangiz bo‘ladimi? “Could you please explain it again, Miss?”* O‘g‘il bolalar liderlik va jamoaviylikni ifodalovchi aktlarga moyil bo‘ladi: *Men birinchi o‘ynayman!*, *“Let’s win this game, guys!”*

Pragmatik farqlar eng yaqqol oila, maktab va raqamli muhitda ko‘zga tashlanadi.

Oila muhitida qizlar muloyim va ijtimoiy uyg‘unlikni saqlovchi strategiyalarni tanlaydi: *Onajon, iltimos, yordam bering, Mommy, can you help me, please?* O‘g‘il bolalar esa bevosita va buyruqona aktlardan foydalanadi: *Dada, koptog‘imni olib chiqing!*, *“Dad, give me the ball!”*

Maktab muhitida qizlar hamkorlik va odobni, o‘g‘illar esa bahs va ustunlikni ko‘rsatishga moyil: *Keling, birga qilamiz - “I’ll go first”*.

Internet va onlayn muloqotda gender pragmatikasi yangi shakl oladi: (qiz) *“Sog‘indim ♥ 😊”*, *“Miss you ♥ 🌸”*; (o‘g‘il) *Bro, rush qildik-a?!*, *“GG, well played!”*

Ingliz va o‘zbek bolalar nutqining pragmatik rivojlanishi

Omil	O‘zbek bolalari nutqi	Ingliz bolalari nutqi
Oila odobi	Hurmat bilan: <i>“Onajon, choy quyib berasizmi?”</i> ; qo‘pol oilada esa buyruqona: <i>“Qani tezroq qil!”</i>	Hurmat bilan: <i>“Please, could you help me?”</i> ; qo‘pol muhitda esa: <i>“Shut up!”</i> , <i>“Idiot!”</i>
Diniy mansublik	Islomiy birliklar: <i>“Assalomu alaykum”</i> , <i>“Ilohim rozi bo‘lsin”</i>	Nasroniy birliklar (ko‘proq): <i>“God bless you”</i> , <i>“Thank God”</i>
Shahar muhiti	Globalizatsiya ta’siri: <i>“OMG, juda zo‘r edi 😊”</i> , <i>“Bro, bugun futbolni yutdik, GG!”</i>	Global slang: <i>“LOL, that’s funny”</i> , <i>“OMG, really?”</i>
